

DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH INDIKATORLARI

Muslimbek ALIJONOV

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya
universiteti v.b.dotsenti, tarix

fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

Tillavoldiyev Behzod Qahramon o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
"Davlat boshqaruvi" yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat boshqaruvida samaradorlikni baholash indikatorlari, ularning nazariy asoslari hamda amaliyotda qo'llanish mexanizmlari chuqur tahlil qilingan. Mualliflar davlat boshqaruvining zamonaviy tamoyillari doirasida asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) tizimining ahamiyatini ochib berar ekanlar, ushbu yondashuvning tarixiy ildizlari sifatida F. U. Teylorning ilmiy boshqaruv tamoyillariga alohida e'tibor qaratadilar. Maqolada KPI indikatorlarini to'g'ri tanlash boshqaruv jarayonidagi real natijani aniq o'lchash, xatoliklarni aniqlash va samarali qarorlar qabul qilishdagi ustuvor omil ekanligi asoslab beriladi. Tadqiqot doirasida Jahon bankining Worldwide Governance Indicators (WGI) indeksidagi boshqaruv sifatining olti yo'nalishi ham tahlil etilgan bo'lib, ular milliy baholash tizimi uchun muhim metodologik asos sifatida qaraladi. O'zbekistonda davlat xizmati samaradorligini oshirishga qaratilgan "Davlat xizmati to'g'risida"gi Qonun, Taraqqiyot strategiyasi hamda davlat organlari ochiqlik indeksiga doir normativ-huquqiy hujjatlar mazmuni tadqiq etilib, ularning KPI tizimini joriy etishdagi o'rni yoritilgan. Mualliflar samaradorlikni baholashning to'g'ri yo'lga qo'yilishi davlat xizmatchilarining mas'uliyati, rag'batlantirish mexanizmlarining shaffofligi, aholi ishonchining ortishi hamda vazirlik va idoralar faoliyatidagi integratsiyalashuvni kuchaytirishini ta'kidlaydilar. Xulosa qismida xalqaro tajribaga tayangan holda milliy baholash tizimini takomillashtirish, malakali kadrlar bazasini rivojlantirish va samaradorlik natijalarini jamoatchilikka muntazam yetkazib borish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: davlat boshqaruvi, samaradorlik, indikator, davlat xizmatchisi, xalqaro indeks, baholash mezonlari

Annotation: This article provides a comprehensive analysis of performance evaluation indicators in public administration, their theoretical foundations, and practical implementation mechanisms. The authors emphasize the importance of key performance indicators (KPIs) within modern governance frameworks, highlighting F. W. Taylor's scientific management principles as one of the conceptual bases of this

system. The study argues that selecting accurate KPIs enables objective measurement of actual outcomes, identification of performance gaps, and evidence-based decision-making. The article also examines the six dimensions of the Worldwide Governance Indicators (WGI) developed by the World Bank, which serve as an important methodological reference for improving national evaluation systems. Furthermore, the paper analyzes Uzbekistan's legal and strategic documents, including the Law "On Public Service," the "New Uzbekistan" Development Strategy, and the national system for assessing the openness of state institutions, demonstrating the relevance of KPI implementation in the public sector. The authors conclude that an effectively designed performance evaluation system enhances civil servant accountability, ensures transparency in incentive mechanisms, strengthens public trust, and promotes higher institutional integration. The conclusion section outlines recommendations aimed at advancing the national evaluation framework, developing qualified human resources, and ensuring regular public communication of performance results.

Keywords: public administration, effectiveness, indicators, civil servants, international indexes, evaluation criteria

Аннотация: В данной статье всесторонне проанализированы индикаторы оценки эффективности государственного управления, их теоретические основы и механизмы применения на практике. Авторы раскрывают значение системы ключевых показателей эффективности (KPI) в современных условиях государственного управления, уделяя особое внимание научным принципам управления Ф. У. Тейлора как методологическому основанию данной модели. Подчеркивается, что корректный выбор KPI позволяет объективно измерять реальные результаты деятельности, выявлять существующие недостатки и обеспечивать принятие управленческих решений на основе доказательных данных. В исследовании также рассматриваются шесть направлений глобального индекса качества управления Worldwide Governance Indicators (WGI) Всемирного банка, которые служат важной методологической основой для совершенствования национальной системы оценки. Проанализированы нормативно-правовые документы Узбекистана, включая Закон «О государственной службе», Стратегию развития «Нового Узбекистана» и систему оценки открытости государственных органов, что демонстрирует значимость внедрения KPI в государственном секторе. Авторы отмечают, что правильно организованная система оценки эффективности способствует повышению ответственности государственных служащих, прозрачности механизмов поощрения, укреплению доверия населения и повышению уровня интеграции между государственными органами. В заключении предлагаются меры по совершенствованию

национальной системы оценки, развитию кадрового потенциала и обеспечению регулярного информирования общества о достигнутых результатах.

Ключевые слова: *государственное управление, эффективность, индикаторы, государственные служащие, международные индексы, критерии оценки.*

Kirish. Har qanday boshqaruv, avvalo, ma'lum bir jarayondagi resurslarni o'z o'rnida samarali sarflanishini ta'minlashga qaratiladi. Davlat boshqaruvini samarali o'lchash tizimi bo'lmasa, jamiyat ixtiyoriylikka (beqarorlikka) mahkum bo'ladi va davlat hokimiyatidan mas'uliyatsiz foydalanish holatlari yuzaga keladi; demokratiya esa soxta siyosatga aylanib, hokimiyat despotizmga olib keladi. Shu nuqtayi nazardan samaradorlikni muttasil ravishda baholash faoliyatning yanada rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ya'ni samaradorlikni baholash boshqaruvning qanchalik to'g'ri yuritilayotganini ko'rsatib berishi bilan bir qatorda qaysi o'rinlarga e'tibor berilishi kerakligini ham ko'rsatadi. Asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) — bu oldindan belgilangan uzoq muddatli maqsadlarga erishish darajasini baholash va mustahkamlash uchun qo'llaniladigan moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlardir. O'lchash uchun qo'llaniladigan ko'rsatkichlarni to'g'ri tanlash nihoyatda muhim hisoblanadi [1].

Adabiyotni o'rganish. Frederick Winslow Taylor o'zining “The Principles of Scientific Management” asarida samarali boshqaruvning asosiy tamoyillarini ishlab chiqqan hamda ishlab chiqarish jarayonini ilmiy asosda tashkil qilish g'oyasini ilgari suradi. Uning fikriga ko'ra, har bir xodimning bajaradigan ishi bo'yicha aniq me'yorlari, nazorat mexanizmi va rag'batlantirish tizimi bo'lishi kerak. Taylorning ayni shu fikrlari zamonaviy KPI tizimining falsafiy asoslaridan biri sifatida qabul qilingan. Xususan, ish faoliyatini natijaviy mezonlar asosida baholash va rag'batlantirish zarurati bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda.

Asosiy qism. Bilamizki, davlat boshqaruvi turli sohalarda davlat vazifalarini amalga oshiruvchi ijro hokimiyati organlarining maqsadli faoliyati sanaladi. Davlat boshqaruvida samaradorlikni baholash boshqaruv tizimi tomonidan qilinayotgan ishlar hamda erishilayotgan natijalarni o'lchash imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida davlat boshqaruvi tizimida xizmat qilayotgan organlar va ularning xodimlarini o'z vazifa va majburiyatlarini qanchalik darajada bajarayotganliklarini aniqlash imkonini yaratadi. Davlat boshqaruvining samaradorligi baholashda iqtisodiy, ijtimoiy, ma'muriy kabi turli sohalardagi davlat boshqaruvining samaradorligini baholovchi indikatorlar ham mavjud.

Ish faoliyatini o'lchash boshqaruvning asosiy tamoyillaridan biri sanaladi. Ish faoliyatini o'lchashning ahamiyati shundaki, u joriy va kutilayotgan natijalar orasidagi mavjud farqlarni aniqlaydi hamda bu farqlarni bartaraf etishga qaratilgan rivojlanish

yo'nalishini ko'rsatadi. To'g'ri tanlangan asosiy ish samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) aynan qayerda harakat qilish kerakligini aniqlab, ish faoliyatini yaxshilash imkonini beradi [2].

2022-yil 14-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-154-sonli farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon asnosida davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirish uchun ochiqlik darajasini baholashning yangi tizimini joriy etish ko'zda tutilgan. Ushbu tizim orqali davlat organlarining faoliyati aniq indikatorlar asosida muntazam tahlil qilinib, ularning samaradorlik darajasi ochiq reytingda aks ettiriladi. Farmonga muvofiq, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan har yil yakuni bo'yicha davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlik indeksi shakllantiriladi va "eanticor.uz" elektron platformasi va ommaviy axborot vositalari orqali ochiq e'lon qilib borilishi belgilangan [3].

Natijalar. Jahon banki (The World Bank) tomonidan ishlab chiqiladigan va har yili yangilanib boriladigan global boshqaruv sifatini baholovchi indeks (Worldwide Governance Indicators, WGI) mavjud. WGI ushbu turli manbalarni birlashtirgan holda, 1996–2023-yillar oralig'ida 200 dan ortiq mamlakat uchun boshqaruvning quyidagi olti yo'nalishi bo'yicha umumlashtirilgan indikatorlarni yaratgan:

- javobgarlik
- siyosiy barqarorlik va zo'ravonlikning yo'qligi
- hukumat samaradorligi
- tartibga solish sifati
- qonun ustuvorligi
- korrupsiyani nazorat qilish [4].

Mazkur indikatorlar butun dunyodagi 30 dan ortiq tahliliy markazlar (think tanks), xalqaro tashkilotlar, nodavlat tashkilotlar va xususiy kompaniyalar tomonidan ishlab chiqilgan mavjud ma'lumotlar manbalariga asoslanadi.

Davlat xizmatchilarining samaradorlik darajasiga qarab ularni rag'batlantirishimiz yoki tegishli choralar ko'rishimiz mumkin. Agarda shaffof baholash tizimi yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, xodimni mukofotlash yoki unga nisbatan intizomiy chora ko'rish subyektivlik, o'zaro manfaatdorlik kabi salbiy mezonlar asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, samaradorligi yuqori xodim o'z mehnatiga yarasha haq oladigan bo'lsa uning ishiga bo'lgan qarashi yanada ijobiy tus oladi hamda yangidan yangi muvaffaqiyatlar sari ishonch bilan odimlaydi [5].

Shu nuqtayi nazardan, samaradorlikni baholash masalasi nafaqat fuqarolarga davlat boshqaruvi jarayonida qulayliklar taqdim qilish, ularga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish jihatidan, balki, davlat boshqaruvida faoliyat yurituvchi xodimlarning manfaatlarini ham qamrab olishi bilan ham dolzarb va ahamiyatlidir.

Xulosa va takliflar. O'zbekistonda davlat boshqaruvida samaradorlikni baholash indikatorlari va ularni jorish etish amaliyoti doirasidagi mavjud muammolar va ularni hal qilish yuzasidan davlat boshqaruvi samaradorligini baholash bilan shug'ullanuvshi xalqaro institutlar bilan aloqalarni rivojlantirish, ularning baholash mezonlari asosida milliy baholash tizimini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Qayd etilgan samaradorlik natijalaridan aholini ham doimiy xabardor qilishni yo'lga qo'yish esa aholining davlat siyosatiga nisbatan ishonchini yanada kuchaytiradi. Samaradorlikni aniq baholash orqali o'z ishida sustkashlikka yo'l qo'yayotgan xodimlarni aniqlab, talab etilsa ularning o'rniga boshqalarini olib kelish orqali tizim faoliyatida rivojlanish barqarorligiga erishilishi mumkin. Shu o'rinda davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirishda davlat organlari o'rtasidagi integratsiyalashuv ham nihoyatga muhim ekanligini aytish zarur. Integratsiyalashuv natijasida fuqaro emas, balki unga tegishli ma'lumotlar, hujjatlarning o'zi davlat boshqaruvi organlari bazalari orasida harakatlanadi. Bu esa nafaqat fuqaroning vaqtini tejaydi, balki davlat boshqaruvi idorasi faoliyati samaradorligini ham kuchaytiradi. Shuningdek, samaradorlikni baholash bilan shug'ullanuvchi malakali kadrlar bazasini shakllantirish hamda doimiy ravishda kengaytirib borish soha rivojini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida" gi O'RQ-788-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Qonuni hujjatlari milliy bazasi rasmiy veb-sayti – www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-154-sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Qonuni hujjatlari milliy bazasi rasmiy veb-sayti – www.lex.uz
4. INDICATORS FOR EVALUATION OF PUBLIC MANAGEMENT, Maury Cruz, Luis Alberto and Cruz-Juárez, Alberto and Medel-Ramírez, Carlos (2021), Universidad Veracruzana, Mexico
5. ROLE AND IMPORTANCE OF KEY PERFORMANCE INDICATORS MEASUREMENT, Dragana Velimirovića, Milan Velimirović, Rade Stanković, Serbian Journal of Management 6 (1) (2011) 63 – 72